

HOMILADORLIK FIZIOLOGIYASI

Pulatov Dilshod Mashrab o'g'li

Samarqand Davlat tibbiy Unerisiteti

3 son Akusherlik va Ginekologiyasida

I-bosqich klinik ordinatori

+998995781353

Jalolova Yulduz Muhiddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti tyutori

Yulkamuxiddinovna@gmail.com

Dilshod.pulatov.97@mail.ru

Annotatsiya: *Maqola davomida, urug`langan tuxum hujayraning ona organizmida rivojlanib yetuk homilaga aylanishi, homila, homiladorlik paytida ona organizmida ro`y beradigan o`zgarishlar, homiladorlikning bosqichlari va tug`ruq jarayoni haqida so`boradi.*


Kalit so`zlar: Homiladorlik, zigota, vorskalar, platsenta, yo`ldosh, tug`ruq.

Asosiy qism: **Homiladorlik** (lot. *graviditas.*) — ayol organizmining maxsus holati bo`lib, uning reproduktiv a`zolarida rivojlanayotgan embrion yoki homila mayjudligidir. Homiladorlik bachadon nayida ayol va erkak jinsiy hujayralarining birlashishi natijasida sodir bo`ladi, natijada 46 xromosomani o`z ichiga olgan **zigota** shakllanadi.

Homiladorlik, og`ir oyoqlik -urug`langan tuxum hujayraning ona organizmida rivojlanib, yetuk homilaga aylanishidan iborat fiziologik jarayon. Ayol tuxumdonida yetilib chiqqan tuxum hujayraning erkak jinsiy hujayrasi bilan qo`silishi (urug`lanishi)dan boshlanadi va o`rta hisobda 280 kun, ya`ni 10 qamariy oy davom etadi. Urug`lanish bachadon nayida ro`y beradi. Urug`langan tuxum hujayra bachadon nayining chuvalchangsimon qisqarishi tufayli bachadon bo`shilig`iga qarab surilib boradi, shu vaqtida u mayin tuklar (vorskalar) bilan qoplanib, ko`p hujayrali embrionga aylanadi, o`sha tuklar yordamida bachadon shilliq pardasiga payvandlanib oladi. Shu vaqtadan boshlab homila shakllana boshlaydi va ayol organizmidagi ba`zi sistemalar funksiyasi tegishlicha o`zgarib boradi. Embrioning bachadonga payvandlangan joyida tuklar juda o`sib ketadi va ulardan platsenta, ya`ni yo`ldoshning tarkibiy qismi — bola o`rni hosil bo`ladi, u kindik orqali homila bilan tutashadi. Kindik qon tomirlari bo`ylab platsenta orqali ona organizmidan homilaga oziq moddalar, kislorod kelib turadi va homiladan keladigan almashinuv mahsulotlari chiqib ketadi. Bachadon naylarining turli kasalliklarida tuxum hujayraning bachadonga qarab surilib kelishiga to`sinqinlik qiladigan o`zgarishlar oqibatida tuxum hujayra bachadon nayiga payvandlanib qolishi mumkin. Bu bachadondan tashqari homiladorlik deb ataladi. Homiladorlik davrida ayol organizmida har xil funksional o`zgarishlar ro`y berib, homilaning yaxshi rivojlanib borishi uchun qulay sharoitlar yuzaga keladi. Bu davrda markaziy nerv sistemasi funksiyasi bir qadar o`zgarib, natijada orqa miyaning qo`zg`aluvchanligi pasayadi, bu — bachadon muskullarining bo`sashishi va uning tinch holatda bo`lishiga olib keladi.

Homiladorlik paytida hosil bo‘ladigan sariq tana va platsenta homilaning oy-kuni yetib tug‘ilishi uchun zarur gormonlar ishlab chiqaradi; platsentadan ishlanib chiqadigan va boshqa gormonlar ta’sirida sut bezlari kattalashib, Homiladorlik oxiriga borganda, undan og‘iz suti, chilla davrida esa sut kela boshlaydi. Bachadonda ham talaygina o‘zgarishlar ro‘y beradi: u ham bo‘yiga, ham eniga qarab o‘sib, platsentaga qon olib keladigan yirik va mayda qon tomirlari nihoyatda ko‘payadi. Ayol chuqurroq nafas oladigan bo‘lib qoladi, bu — qonning kislorod bilan ko‘proq to‘yinishini ta’minlaydi. Yurakning qisqarish xususiyati sezilarli darajada kuchayadi, natijada kislorod bilan to‘yingan qon ayolning hayot uchun muhim a’zolariga, jumladan bachadoniga tezroq yetkazib beriladi. Buyraklar ham zo‘r berib ishlab, ona organizmidagina emas, balki homilada ham paydo bo‘lgan almashinuv mahsulotlarini ajratib chiqarib turadi. Ko‘mikda eritrotsitlar hosil bo‘lishi tezlashadi, ya’ni qon miqdori ko‘payadi, qon tomirlari kengayib, gaz almashinushi kuchayadi. Shu bois homilador organizmidagi a’zo va sistemalarining normal ishlab turishini ta’minalash hamda homila rivojlanadigan qulay sharoit vujudga keltirish uchun oziq moddalar va kislorod ko‘p bo‘lishi kerak. Homiladorning ahvoli va o‘zini qanday tutishi ko‘p jihatdan Homiladorlikning normal kechishi, homilaning keyin qanday rivojlanib borishi va bo‘lg‘usi bolaning sog‘ligini belgilab beradi. Homilador ayolning biror kasallik (gripp, sil, revmatizm, angina, qandli diabet, kamqonlik, jigar, buyrak, yurak kasalliklari va boshqalar) bilan og‘rishi, noto‘g‘ri ovqatlanish, kun tartibini buzishi, vrach buyurmagan dorilarni ichishi homila taraqqiyotiga yomon ta’sir qilishi mumkin.

Homiladorlik birinchi uch oyida (birinchi trimestr) homilaning a’zolari shakllanadi, 12-haftaning oxiriga borib yo’ldosh to’liq shakllanib bo’ladi. Yo’ldosh orqali homila ozuqa moddalarini oladi va metabolizmning yakuniy mahsulotlari chiqarib yuboriladi. Inson homiladorligi muddati 9 oy yoki 40 akusherlik haftani (oxirgi hayzdan sanab) tashkil qiladi. Akusherlikda fiziologik va patologik homiladorlik ajratiladi. Odatda, har qanday homiladorlik tug’ruq akti bilan tugaydi — bola dunyoga keladi, ko‘p homilalari homiladorlik taqdirida esa — egizaklar (**gomozigotali** — bir xil yoki **geterozigotali** — turli).



Homiladorlik chog‘ida turli asoratlar bo‘lmasligi uchun mumkin qadar barvaqt (hayz to‘xtashi bilan) ayollar maslahatxonasiga borib, tekshiruvdan o‘tish va kerakli maslahatlar, zarur bo‘lsa, tegishli davo olish lozim. Homiladorlik davrida ayol o‘z badani va kiyim-kechaklari tozaligiga alohida e’tibor berishi kerak. Homiladorlikka oid foydali kitob, jurnal, sayt va mobil ilovalardan foydalanishi lozim

Homiladorlik normal o‘tayotgan bo‘lsa, ayol odatdagи turmush tarzini o‘zgartirishi shart emas, u o‘z yumushlarini dam olib bajaraverishi mumkin. Faqat og‘ir narsa ko‘tarmaslik, qaltis, keskin harakatlar qilmaslik maqsadga muvofiq.

Tiniqib uqlashning ahamiyati bor, ayol kamida 8 soat uqlashi, kechqurun yotishdan oldin ochiq havoda bir oz sayr qilishi va xonani shamollatishi tavsiya etiladi. Sog‘lom homiladorlarning vrach tavsiyasiga ko‘ra havo va quyosh vannalari qabul qilishiga ruxsat etiladi. Homiladorlik normal o‘tayotgan bo‘lsagina ayol daryo va anhorlarda cho‘milishi mumkin. Homiladorlikning birinchi kunlaridan boshlaboq ochiq havoda imkonи boricha ko‘proq bo‘lishga harakat qilish lozim, chunki odam uy ichida o‘tiraversa kislodaga yolchimay qolishi, natijada har xil asoratlar yuz berishi mumkin. Homiladorlikning eson-omon o‘tishi va homilaning yaxshi rivojlanib borishi uchun asosiy shartlardan biri yaxshi ovqatlanishdir; ovqat to‘yimli, xilma-xil, oqsillar va vitaminlar (foliy kislotasi, C vitamini) ga boy bo‘lishi kerak. Masalan, homiladorlikdan oldin va birinchi trimesterdan foliy kislotasini to‘g‘ri miqdorda, kuniga 400 mkg (0,4 mg) qabul qilib borish tug‘ma nuqsonlarning rivojlanish ehtimolini keskin kamaytiradi. Homiladorlikning oxirgi oylarida yog‘liq va xamir ovqatlarni ko‘p tanovul qilish yaramaydi, chunki bunday ovqat homilaning ancha kattalashib ketishi va tug‘ishning qiyinlashib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tug‘ruq — homiladorlikni yakunlaydigan murakkab fiziologik jarayon. Tug‘ruqdan homila va yo‘ldosh tug‘ruq yo‘llaridan o‘tib, ajralib chiqadi. Tug‘ruq normal kechganida homila 10 akusher (9 kalendar) oyida tug‘iladi; bu davrda homila yetuk, bachadondan tashqarida yashash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Homilador ayollarning ko‘pchiligidagi Tug‘ruqdan 2 hafta oldin tug‘ruq nishonasi ko‘rinadi; bunda bachadon tubi keskin oldinga egiladi, qorin pastga tushadi va ayol yengil nafas ola boshlaydi; organizmdan ajralgan suyuqlik hisobiga vazni bir qadar yengillashadi; bachadon muskullari vaqt-vaqt bilan qisqarib taranglashadi. Ayolning ko‘zi yorishiga 1—2 kun qolganida qindan quyuq cho‘ziluvchan shilliq ajraladi, ba’zan shilliq bir oz qon aralash bo‘ladi (homiladorlik davomida bachadon bo‘yni kanalini to‘ldirib turgan shilliq tiqin ajralib chiqadi), qorin pastida, dum‘azada, bel sohasida tarqoq og‘riq kuzatiladi. Tug‘ruq nishonasidan ayol cho‘chimasligi, aksincha Tug‘ruqning yaqinlashib qolganligini his qilishi lozim. Ana shunday belgilar ko‘ringanida ayol uyda bo‘lib turgani ma’qul, chunki tez orada to‘lg‘oq kuchayib, uni zudlik bilan tug‘ruqxonaga eltish zarur bo‘ladi. Tug‘ruq kechishi 3 jarayonga bog‘liq: 1. tug‘ruq yo‘llari; 2. Tug‘ruq xaydovchi kuchlar; 3. homila va uning yo‘ldoshi.

Tug‘ruq jarayoni uch davrga bo‘linadi: 1. Bachadon bo‘ynining ochilishi; 2. Homilaning haydalishi; 3. Yo‘ldoshning tug‘ilish davri. Ba’zi ayollarda tug‘ruq nishonasi boshlanganida qog‘onoq suvi ketib qoladi; bunday belgilar paydo bo‘lganda ayolni darhol tug‘ruqxonaga yotqizish kerak, aks holda qog‘onoq suvi bilan birga homilaning kindik halqasi yoki ko‘li qinga tushishi mumkin. Bundan tashqari, qog‘onoq suvi tug‘ruqdan oldin ketib qolsa, qin

органи бачадонга инфексиya кириши осонлашади. Homilador ayol tug‘ishiga yaqin dard tuta boshlaydi. Homila o‘tadigan tug‘ruq yo‘li (tug‘ruq kanali) — kichik chanoq suyaklari va yumshoq to‘qimadan (bachadon bo‘yni, bachadon tubi muskullaridan) tashkil topgan bo‘lib, shakli egilgan nayga o‘xhash.

Tug‘ruq kanalining kirish qismi qattiq suyak halqadan iborat, eni 13 sm, bo‘yi 11 sm. Bu o‘lchamlar homila boshining normal o‘tishiga moye bo‘ladi; o‘lchamlarning bundan kichik bo‘lishi (tor chanoq) tug‘ruqni mushkullashtiradi. Bunday vaqtda operatsiya qilib tug‘diriladi.

Birinchi marta tug‘ayotgan ayollarda 15—24 soat, takror tug‘ayotgan ayollarda 10—12 soat davom etishi mumkin. Tug‘ruqning qancha davom etishi ayolning yoshiga (yoshi kattaroq ayollar birinchi marta tug‘ayotganida tug‘ruq uzoq davom etadi), homilaning kattakichikligiga, chanoq o‘lchamiga, bachadon muskullarining qisqarishiga bog‘liq.

Tug‘ruq uch davrni o‘z ichiga oladi. Birinchi davr uzoqroq (birinchi marta tug‘ayotgan ayollarda 13—18 soat, takror tug‘ayotganlarda 6—9 soat) davom etadi. Bu davrda bachadon bo‘yni astasekin tekislanib, tug‘ruq kanali kengayadi. Bachadon bo‘ynining tashqi teshigi to‘la ochilgach qog‘onoq (homila pufagi) yoriladi. Ba’zi hollarda homila pufagi yorilmay qolsa, bola "pardali" tugiladi, bu homila uchun juda xavfli, chunki u dimiqib nobud bo‘lishi mumkin. Bachadon bo‘ynining to‘la ochilishi va qog‘onoq suvining ketishi bachadon muskullarining qisqarishiga va homilaning tug‘ilishiga imkon beradi (ikkinchi davr). Bu davrda bachadon muskullarining ritmik qisqarishi yanada kuchliroq va uzoqroq davom etib, unga krrin devori muskullari hamda diafragmaning qisqarishi qo‘shiladi, ya’ni kuchaniq ro‘y beradi. Ayol har kuchanganida homila tug‘ruq kanali bo‘ylab surila boshlaydi, bunda homila ma’lum harakatlar qilib suriladi, bu esa uning osongina tug‘ilishini ta’minlaydi. Homila boshi chanoqning katta o‘lchamiga moslashib siljiydi, bu davrda homila boshi bukiladi va engagi ko‘kragiga tegadi, yuzi o‘ng yoki chapga qaraydi. Homila tug‘ruq kanali bo‘ylab siljiganda ensa qismi bilan oldinga, yuzi bilan dum’aza tomonga o‘girilib oladi. Homilaning boshi chanoq tubi, to‘g‘ri ichak va tashqi chiqaruv yo‘lini bosadi, bunda ayolning hojati qistagandek tuyuladi. Keyinchalik ayol har kuchanganida homila boshi jinsiy oraliqda ko‘rinadi, kuchaniq to‘xtashi bilan ko‘rinmay qoladi; tez orada shunday payt keladiki, kuchaniq tutmay turganida xam homila boshi ko‘rinib turaveradi. Bu vaqtda tug‘ruqni boshqaruvchi akusherka chaqalojni tug‘dirishga kirishadi. Homilaning tug‘ilish davrida ayol akusherkaning aytgani bo‘yicha kuchaniqni tezlatishi yoki sekinlatishi mumkin, bunda bola chiqayotganida tug‘ruq yo‘lidagi yumshoq to‘qimalar yirtilmay qoladi. Homilaning boshi chiqishi bilan tanasi ko‘rinadi. Shu bilan tug‘ruqning ikkinchi, ya’ni homilaning tug‘ilish davri tugaydi. Bu davr birinchi bor tug‘ayotgan ayollarda 1,5—2 soat, takror tug‘ayotgan ayollarda yarim soatdan bir soatgacha davom etadi. Chaqaloq bilan yo‘ldoshni birlashtiruvchi kindik kesib bog‘lanadi. Chaqaloq tug‘ilishi bilanoq yig‘laydi, nafas ola boshlaydi. Endi uchinchi davr, ya’ni yo‘ldosh tushish davri boshlanadi, bu o‘rtacha 30 min.dan 1 soatgacha davom etadi. Bunda yo‘ldosh bachadon devoridan ko‘chadi va tushadi; bir oz (250 ml cha) qon ketadi. Yo‘ldosh tushish davrini vrach sinchiklab kuzatib turadi, chunki yo‘ldosh butunligicha tushmay, biror bo‘lagi qolib ketsa, qon ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yo‘ldosh tushishi bilan tug‘ruq tugab, chilla davri boshlanadi.

Xulosa: Ushbu maqolada, homiladorlikning nimaligi, homiladorlikdagi zigota, embrion davri bosqichlari, ona organizmida ro`y berayotgan o`zgarishlar, homilaning asosan birinchi uch oyligidan homila a`zolarining rivojlanishi, tug`ruq davri jarayoni uning qancha davom etishi haqida so`z borgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<https://avitsenna.uz/homiladorlik-belgilari/>

[https://www.verywellfamily.com/1-week-pregnant-4158813↑](https://www.verywellfamily.com/1-week-pregnant-4158813)

<https://www.aptaclub.co.uk/pregnancy/diet-and-nutrition/understanding-food-groups/why-is-salt-important.html>

↑ <https://meduza.io/feature/2017/07/28/govoryat-pri-beremennosti-nelzya-zanimatsya-sportom-krasit-volosy-i-letat-na-samolete-eto-pravda>

<https://mymedic.uz/homiladorlik/homiladorlik-haqida-toliq-malumot/>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Tug`ruq>